

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING IJTIMOIY-FUQAROLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODLARI**

*Abdunazarova Maftuna*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*Namangan filiali Boshlang‘ich ta’lim*

*yo ‘nalishi, 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda fuqarolik ongi, huquqiy madaniyat, ijtimoiy faollik, demokratik qadriyatlarni rivojlantirishda pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba, ta’lim texnologiyalari hamda o‘quvchi kompetensiyasini rivojlantirishga doir metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyasi mazmuni, shakllantirish mexanizmlari, zamонавиј та’лим texnologiyalarining roli, ijtimoiy faollik, xalqaro tajriba.

**Annotation.** This article analyzes the mechanisms for developing the social-civic competencies of primary school pupils in the process of primary education. The study highlights the importance of pedagogical, psychological and social mechanisms in fostering civic consciousness, legal culture, social activity and democratic values. Additionally, international experience, educational technologies and methodological recommendations for developing pupil competencies are provided.

**Keywords:** the content of social citizenship competence, mechanisms of formation, the role of modern educational technologies, social activity, international experience.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы механизмы формирования социально-гражданских компетенций учащихся начальных классов в процессе начального образования. В исследовании освещается значение педагогических, психологических и социальных механизмов в развитии гражданского сознания, правовой культуры, социальной активности и демократических ценностей. Также приведены международный опыт, образовательные технологии и методические рекомендации по развитию компетенций учащихся.

**Ключевые слова:** содержание социальной гражданской компетентности, механизмы формирования, роль современных образовательных технологий, социальная активность, международный опыт.

## Kirish

Bugungi globallashuv davrida boshlang‘ich ta’lim tizimi nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularda ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Chunki yosh avlodning fuqarolik ongi, huquqiy madaniyati va ijtimoiy faolligini oshirish jamiyat barqarorligi hamda mamlakat kelajagi uchun muhim omildir.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bu jarayonda asosiy yetakchi shaxs hisoblanadi. U nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarda demokratik qadriyatlar, vatanparvarlik tarbiyasi, hamkorlik va ijtimoiy mas‘uliyatni rivojlantiruvchi tarbiyachi sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois o‘qituvchilarning pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlardan samarali foydalanishi katta ahamiyatga ega.

### **Ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyasining mazmuni**

Ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyasi — bu shaxsning o‘z huquq va burchlarini anglash, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shish ko‘nikmalarini anglatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu kompetensiyani shakllantirishning dastlabki bosqichlari ota-onasiga, maktab va jamiyat hamkorligida yuzaga keladi. Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini topa olishi va eng muhimmi, o‘z sohasi bo‘yicha raqobatbardosh kadr bo‘lishi uchun tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak.

### **Tayanch kompetensiyalarga quyidagilar kiradi:**

1. axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi;
2. o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi;
3. ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
4. milliy va umummadaniy kompetensiyalar;
5. matematik savodxonlik;
6. fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish va ulardan foydalanish kompetensiyasi.

### **Shakllantirish mexanizmlari**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish juda muhimdir. Ma’lumki, mafkuraviy tarbiyaning eng ta’sirchan vositalaridan biri muloqot hisoblanadi. Chunki inson qalbida va ongida shakllanadigan dunyoqarash, e’tiqod, iyomon, vijdon va mas‘uliyat kabi fazilatlar tarbiyasida radio, televide niye, gazeta-jurnallar, badiiy hamda ilmiy adabiyotning o‘rni muhimdir. Ammo shuni ta’kidlash joizki, yuzma-yuz kechadigan fikr almashuv, insonning yuzi va ko‘ziga qarab turib aytildigan mulohazali so‘z va hissiyorlarning o‘rni beqiyosdir.

## **Shakllantirish mexanizmlari uch xil bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:**

**Pedagogik mexanizmlar:** innovatsion dars metodlari, loyiha assosida o‘qitish, interfaol o‘yinlar orqali fuqarolik qadriyatlarini singdirish.

**Psixologik mexanizmlar:** bolalarda empatiya, hamkorlik, mas’uliyatni his qilishni rivojlantirish.

**Ijtimoiy mexanizmlar:** oila, maktab va mahalla hamkorligida ijtimoiy loyihalar tashkil etish, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishni rag‘batlantirish.

## **Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarining roli**

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faoliyatidagi o‘rni juda katta. Chunki bu bosqichda o‘quvchilar ta’lim olish jarayoniga endi kirib keladi va ular uchun darsning qiziqarli, samarali hamda tushunarli bo‘lishi muhimdir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida bolalarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatish samaradorligi oshadi. Interaktiv doska, virtual darslar, elektron o‘yinlar orqali o‘quvchilarni ijtimoiy jarayonlarga jalb qilish mumkin.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ishini samarali qiladi, darslarni qiziqarli va mazmunli etadi. Eng muhimi, bu texnologiyalar o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish, mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

### **Xalqaro tajriba**

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy-fuqarolik ta’limi alohida fan sifatida o‘qitiladi. O‘zbekiston sharoitida esa bu yo‘nalish boshlang‘ich ta’lim fanlari tarkibiga integratsiya qilinmoqda. Xalqaro tajribani o‘rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini egallah ham boshlang‘ich sinflarda katta ahamiyatga ega. O‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o‘ziga xos tarzda kechadi. Masalan, AQSH pedagogikasida quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi:

- a. bolani o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- b. o‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;
- c. bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlari va g‘ururini asrab-avaylash;
- d. o‘quvchini ilk yoshligidan kasb-hunarga yo‘naltirish, Vatanidan faxrlanish va iftixor ruhida tarbiyalash.

### **Xulosa**

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir. Buning uchun

o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar, psixologik yondashuvlar va ijtimoiy hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z faoliyatida o‘quvchilarga nafaqat bilim beradi, balki ularda jamiyatga daxldorlik hissi, insonparvarlik, hamkorlik va mas’uliyat kabi fazilatlarni ham shakllantiradi. Shu bois, o‘qituvchining o‘zi ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyalariga ega bo‘lishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va o‘quvchilar uchun ibrat ko‘rsata olishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish — ularning professional yetukligi, pedagogik mahorati va ijtimoiy faol shaxs sifatida jamiyat taraqqiyotiga qo‘sghan hissasining muhim mezoni hisoblanadi.

Yuqorida taklif qilingan yondashuvlar yosh avlodni fuqarolik ongiga ega, huquqiy madaniyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiysi”ga oid farmonlari va qarorlari.
2. Xoliqov A. \*Pedagogik kompetensiyalar nazariyasi va amaliyoti\*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Xasanboeva O., To‘raqulova D. \*Boshlang‘ich ta’lim metodikasi\*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
4. Dewey J. \*Democracy and Education\*. – New York: Macmillan, 1991.
5. UNESCO. \*Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives\*. – Paris, 2015.